

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MANSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

# **ILM SARCHASHMALARI**

*Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komisyonining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari axoriy ilmiy natijalarini chop etish tansiyasi etilgan ilmiy nashridir.*

**3.2019**

**научно-методический журнал**  
**Издаётся с 2001 года**

**Urganch – 2019**

## TILSHUNOSLIK

**Gavharoy Komilova (Alisher Navoiy nomidagi TDO‘TAU)  
AKSIOLOGIK LEKSIKANING PAREMALARDA AKS ETISHI**

*Annotatsiya. Maqola o‘zbek tili aksiologik leksikasi tadqiqiga bag‘ishlangan. Unda qadriyat darajasiga ko‘tarilgan intellektual aksiologema aql/ahmoqlik (aksiologik diada) misolida shu xalqning o‘zigagina mansub bo‘gan milliy dunyoqarashning aks etishi boshqa leksik birliklar qatori, paremalarda ham mavjudligi ko‘rsatilgan.*

**Аннотация.** Статья посвящена репрезентации пословиц в аксиологической паремиологии узбекского языка. Распределение пословиц по аксиологемам проиллюстрировано на примере аксиологической диады «ум/глупость». Рассматривается языковой статус категорий ценности и оценки.

**Annotation.** The article is dedicated to the study of axiological word stock of the Uzbek language. And there was observed that the expression of national outlook peculiar to the Uzbek nation in the examples of intellec-tual axiologeme wisdom/stupidity at the degree of value also exists in the paremes of other lexical units.

**Kalit so‘zlar:** aksiologiya, qadriyat, baho, subyektiv baho, til, aksiologik yondashuv, aksiologik leksika, maqol, matal, aksiologema.

**Ключевые слова:** аксиология, ценность, оценка, язык, пословица, аксиологическая диада, ценность «ум», антиценность «глупость», аксиологема.

**Key words:** axiology, value, appraisal, subjective appraisal, a language, axiologicql approach, axiological lexics, proverb, saying, axiologeme.

Aksiologiya ijtimoiy fanlarning maxsus sohasi sifatida shakllangan bo‘lib, bir necha yillar davomida falsafaning bir yo‘nalishi sifatida o‘rganilgan. Aksiologiya yunoncha “axios” – qadr-qiyimat, “logos” – fan, ta’limot ma’nosidagi so‘zlarning birikuvidan tashkil topgan. Aksiologiya, qadriyatshunoslik aksiologik ong, qadrlash tuyg‘usi, aksiologik bilish, qadriyatli yondashuv va boshqalar asosida to‘plangan qadriyatlar to‘g‘risidagi bilimlar sistemasi.

G‘arb qadriyatshunosligida mashhur nemis faylasufi I.Kantning izdoshlari V.Vindelband, G.Rikkert, M.Sheler, N.Gartman, G.Elzenberg va boshqalarning qarashlari keng tarqalgan. Ushbu olimlar reallikdan alohida yashashi mumkin bo‘lgan muayyan qadriyatlar olami borligini e’tirof etadilar. Ularning qariyb hammasi uchun umumiy bo‘lgan ushbu qarash tarixi uzoq o‘tmishga, qadimgi falsafaning mashhur namoyandasini bo‘lgan Aflatun zamonlariga, uning g‘oyalar dumyosi bilan bog‘liq fikrlariga borib taqaladi.<sup>1</sup>

Qadriyat – vogelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma‘naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha. Jamiyatda mavjud qadriyatlar, o‘z navbatida, antiqadriyat deb nomlanuvchi zid ko‘rsatkichlariga ham ega. Ayni shu antiqadriyatlar va qadriyatlar juftligi tilshunoslikda aksiologik leksikani hosil qiladi.

Aksiologik ong – qadriyatlarni anglash jarayonida vujudga keladigan qadrlash tuyg‘usi, aksiologik tushuncha, xulosalarni ifodalaydigan va aks ettiradigan ijtimoiy ong shakli. Unda qadriyatlar, ularning mohiyati, mazmuni, namoyon bo‘lish shakllari, ahamiyati va xususiyatlari o‘z aksini topadi.<sup>2</sup>

Inson zoti olam hodisalariga nafaqat baho beradi, balki ularga qadr va qadrlash nuqtayi nazaridan ham qaraydi. Insoniy qadrlash tuyg‘usi kishining narsa hodisalarni oddiy baholashidan-gina iborat emas, balki qadriyatli yondashuv asosida shakllanadigan serqirra ma’naviy xususiyati hisoblanadi. Insoniyatning butun borliq haqidagi dunyoqarashi ham, hayot va boshqalarga qadriyatli yondashuvi ham uning tilida aks etadi. Shu nuqtayi nazaridan, ma’lum bir tildagi aksiolo-

<sup>1</sup> Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi (aksiologiya). Toshkent, 2004, 15-bet.

<sup>2</sup> Shu manba. 20-bet.

gik leksikani taddiq etish, har bir tildagi aksiologik leksikasini o'rganish davomida til egalari aksiologik yondashuvining milliy-mental tabiatini, o'ziga xosliklarini, aksincha, boshqa xalqlar tili va madaniyati bilan mushtarak jihatlarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunda har qanday til lug'at fondida faqat shu xalqning o'zigagina mansub bo'lgan milliy dunyoqarashning aks etishi boshqa leksik birliklar qatori, aksiologik leksikada ham ifodalanishi tildagi bu qatlamni o'rganish dolzarbligini ko'rsatadi. Ayni chog'da, bunday qadriyat darajasiga ko'tarilgan leksik birliklarning boshqa xalqlar tilida ham o'xshash ko'rinishlarda namoyon bo'lishi, ya'ni xalqlarni bir-biriga bog'lab turuvchi, ularning ma'nан yaqin va hamkor bo'lishlariga turki bo'luvchi eng katta vosita ham ayni shu biz tadqiqotini amalga oshirishni ko'zda tutgan aksiologik leksikadir.

O'zbek tilida aksiologik leksikaning faol qatlamini va nofaol qatlamini alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Chunonchi, hayot – o'lim, rost – yolg'on, boylik – qashshoqlik, mehnat – be-korchilik, sog'lik – kasallik kabi aksiologik juftliklarni o'zbek tili aksiologik leksikasining faol qatlamiga kiritish mumkin. Maishiy hayotning eng kichik ajralmas qismiga aylangan va faqat kundalik turmushda qay darajadadir ahamiyatga ega bo'lgan, ko'p hollarda boshqa xalqlar tilida uchramaydigan aksiologik juftliklarni aksiologik leksikaning nofaol qatlamiga mansub birliklar deb e'tirof etishimiz mumkin bo'ladi. Bunga non – tuz, sadaqa – minnat, duo – qarg'ish kabi aksiqad – riyatlarni misol qilib keltirish mumkin, chunki, duo – qarg'ish har doim ham inson hayotining hal qiluvchi bir bo'lagi bo'lolmaydi.<sup>1</sup> Lekin bir qator maqol va matallarimizdagi din bilan bog'liq bu juftlikni ham o'zbek tili aksiologik leksikaning faol qatlamiga kiritish mumkin. Ummum, o'zbek tili aksiologik leksikasining shu va shunga o'xshash masalalari tilshunosligimizda o'rganilma-ganligi tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Muayyan davr yoki tarixiy bosqichga aksiologik yondashuv asosida baho berilganida, uning boshqa davrlardan insoniyat uchun ijtimoiy ahamiyati, qadr-qimmati nuqtayi nazaridan ajralib turishi, o'ziga xosligiga e'tibor beriladi. Bunda davrning yutuqlari, madaniyat tarixidagi hissasi, qoldirgan merosi, ularning keyingi davrlar uchun qay darajada qadrli bo'lganligi hisobga olinadi. Aksiologik baholashda u yoki bu davr kishilariga biror tabaqa, qatlam, sinf, millat yoki irq vakili sifatida emas, balki tiriklikning eng oliy mo'jizasi bo'lgan odamzod naslining vakili sifatida qarash ustuvor bo'ladi.<sup>2</sup>

Shunday ekan, aksiologiyani qadriyatlar falsafasi sifatida talqin qiluvchi ilmiy hamjamiyatga uning bugungi antropotsentrik paradigmaga mansub xususiyatlarini va aksiologik baho – subjektiv munosabat shakli sifatida o'zbek tili paremiologik fondida aks etgan lug'aviy birliklarni alohida tadqiq etish muhimdir.

Aksiologiyaga lingvistik aspektida yondashuv XX asrning ikkinchi yarmida Qozon tilshunoslik mактабида amalga oshirilgan tadqiqotlarda ko'zga ko'rina boshladi. Jumladan, L.K. Bayramova, G.A.Bagautdinova,<sup>3</sup> G.F.Gibatova,<sup>4</sup> R.J.Yunusova<sup>5</sup> kabilarning bevosita aksiologiyaga doir ishlari katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shuningdek, rus tilshunosligidagi Vorkachev tadqiqotlari<sup>6</sup> va bir qator monografiyalarda,<sup>7</sup> bundan tashqari o'zbek tilshunosligida bugungi kunda ak-

<sup>1</sup> Xudoyqulova Sh. O'zbek tili aksiologik leksikasining semantik-stilistik xususiyatlari (magistrlik diss.). T., 2016, 7-bet.

<sup>2</sup> Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi (aksiologiya). Toshkent, 2004, 24-bet.

<sup>3</sup> Багаутдинова Г.А., Байрамова Л.К. Аксиологическая фразеология о счастье. Ученые записки казанского государственного университета. Том 148, кн. 2, гуманитарные науки, 2006.

<sup>4</sup> Гибатова Г.Ф. Аксиология в языке. "Вестник ОГУ", №2 (121), 2011.

<sup>5</sup> Юнусова Р.Ж.. Аксиология фразеологизмов со значением "гостеприимство/кунакчылык" в русском и татарском языках. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук, Казань, 2009.

<sup>6</sup> Воркачев С.Г. Lumen naturale: аксиология интеллекта в языке. Монография, Краснодар, «КубГТУ», 2016, 296 с.

<sup>7</sup> Лингвистика и аксиология: этносемиометрия ценностных смыслов: коллективная монография. М., ТЕЗАУРУС, 2011, 352 с.

siologik modallik J.Yoqubov, G.Qambarov, S.Boymirzayeva,<sup>1</sup> Z.Pardayev<sup>2</sup>lar tomonidan tadqiq etib kelinmoqda. Ayniqsa, Z.Pardayevning keyingi yillarda nashr etilayotgan asosiy ilmiy izlanish va maqolalari<sup>3</sup> aksiologik bahoning kommunikativ-pragmatik imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan.

Aksiologik leksika xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lgan maqol, matal va hikmatli so'zlar, iboralarda o'z aksini topishi va bu orqali xalqning ana shu tushunchaga bo'lgan munosabatini ifodalab kelishi mumkin. Aksiologik tilshunoslikda qadriyat va antiqadriyat aksiologema tushunchasi bilan ifodalanadi. Bu terminni ilk bor maqollar semantikasini tekshirish asosida K.A.Jukov tilshunoslikka olib kirdi.<sup>4</sup> Tadqiqotlarda aksiologik frazeologiyani tadqiq qilish mobaynida qadriyat va antiqadriyat maqomidagi aksiologik diadalar ("aksiologik juftliklar")ni klassifikatsiyalash masalasi o'rta ga tashlandi. Bunday tasniflarni aksiologik frazeologiyaga doir barcha tadqiqotlarda uchratish mumkin.

Aksiogemalar tadqiqotlarda turlicha tasnif qilingan bo'lsa-da, ularni antroposentirk xususiyati birlashtirib turadi. Masalan, G.A.Bagautdinova qadriyat tiplarini quyidagicha ko'rsatadi: 1.Fiziologik aksiogemalar: *hayot – o'lim, sog'lik – kasallik*. 2.Moddiy aksiogemalar: *boylik – kambag 'allik*. 3.Ijtimoiy aksiogemalar: *mehnatsevarlik – ishsizlik*. 4.Ruhiy aksiogemalar: *baxt – baxtsizlik*. 5.Ma'naviy-axloqiy aksiogemalar: *rost – yolg'on*. 6.Intellektual aksiogemalar: *aql – aqlsizlik*. 7.Emotsional aksiogemalar: *kulgi – yig'i*. 8.Mifologik aksiogemalar: *jannat – do'zax*.<sup>5</sup> Bu tasnifga qo'shimcha ravishda quyidagi tiplarni ilova qilish mumkin: 9) holat-harakatni ifodalovchi aksiogemalar: *so'lmoq – yashnamoq*; 10) jarayonni ifodalovchi aksiogemalar: *yoz – qish* kabi.

Xalq maqollarida ba'zi aksiologik juftliklar qadriyat darajasiga ko'tarilgan bo'ladi. Ushbu maqolada intellektual aksiogemalar: *aql – ahmoqlik* juftligining maqollarda qadriyat va antiqadriyat sifatidagi o'rni haqida so'z yuritamiz. O'zbek xalq maqollarining semantik guruhiiga e'tibor beradigan bo'lsak, unda aql, dononlik tushunchalarining ham aksiologik xususiyat kasb etganini ko'rish mumkin. O'zbek xalqi qadimdan dono, aqli va ziyrak, epli insonlarni sevib, hurmat qilgan; befhahm, nodon kishilarga nisbatan salbiy munosabatda bo'lgan va bu maqollarda ham o'z ifodasini topgan quyidagi maqollarda dononlik va nodonlik xalqning milliy-madaniy o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda tasvirlangan bo'lib, ularni tahlil qilish jarayonida xalq hayotidagi qadriyatlarning mazmun-mohiyati haqida ma'lumotga ega bo'lamiz.

Aksiogema: dononlik or-nomus bulan o'lchanadi: *Aqli otini maqtar, Ahmoq – xotinini*. Ot qadimdan turkiy xalqlarning eng yaqin yo'ldoshi bo'lib kelgan. Buni xalq dostonlari "Alpomish"da, "Go'ro'g'li" turkumiga kirivchi bir qator folklor namunalarida ham ko'rish mumkin. Mahmud Koshg'ariyda "ot turkning qanoti" deb ta'riflangan. Shuningdek, Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida ham Farhod Xisrav bilan olishuv paytida yori Shirin ismini aytishni or deb biladi, ya'ni yor ismini ham qizg'onadi. Ayol kishi esa erkakning or-nomusi sanalgan. Xalqimizda ayolini boshqalar oldida farzandini ismi bilan chaqirish ham qadriyatning tilda aks

<sup>1</sup> Боймираева С. Ўзбек тилида матнинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категорииялар. Филол. фан. док. дисс. автореф., Тошкент, 2010, 49-бет.

<sup>2</sup> Пардаев З. Тилшуносликда баҳо концепти ва унинг ўрганилиши ҳақида. Ўзбек тилшунослиги XXI асрда (Номшунос олим профессор Тўра Нафасов таваллудининг 70 йиллигига бағишлиган илмий-назарий анжуман материаллари). Қарши, 2008, 214–220-бетлар.

<sup>3</sup> Пардаев З. Баҳо категорияси ва унинг фанлараро муносабати. Р.Кўнгуроннинг илмий мероси ва ўзбек тилшунослиги масалалари. Самарқанд, 2008, 78-бет.

<sup>4</sup> Жуков В.П. Словарь русских пословиц и поговорок. 7-е изд., стереотип. М., "Рус. яз.", 2000, 109 с.

<sup>5</sup> Багаутдинова Г.А. Аксиологическая лингвистика: языковая ценность языковых единиц и ценности, выражаемые языковыми единицами. Г.А.Багаутдинова. III Международные Бодуэновские чтения: И.А.Бодуэн де Куртенэ и современные проблемы теоретического и прикладного языкоznания (Казань, 23-25 мая 2006 г.): труды и материалы: в 2 т. Казан. гос. ун-т; под общ. ред. К.Р.Галиуллина, Г.А.Николаева. Казань, изд-во Казан. ун-та, 2006, т.2, с. 132.

etishini ko'rsatadi. Shu sababdan ham dono va nodon o'z so'zi orqali ham qandayligini bildirib qo'yishini xalqimiz o'z mental xususiyatidan kelib chiqqan holda ifodalagan

Aksiologema: Aql odob, axloq bilan tenglashtiriladi: *Aql – adab, Aql bilan adab egizak.* Biri ikkinchisini taqozo qiluvchi juftlik sifatida qaraladi: *Ilmning kattasi adab, Aql Hasandir, Odob Husan.*

Aksiologema: Aql, donolik baxtga tenglashtiriladi: *Kym бэлгүсүү билек* – баht белгиси илм ва ақлдир.<sup>1</sup> Ilmning baxtga, yorqin hayotga yetaklishi ta'kidlangan.

Aksiologema: Aql boylikka nisbatan ustun qo'yiladi: *Aqldan ortiq boylik yo'q, Ko'p mol-dan oz aql yaxshi, Odam moli bilan emas, kamoli bilan odam, Aqlsiz boy bo'lguncha, aqlli gadoy bo'l.* aqlning ijtimoiy hayotda ahamiyatli o'mni yoritilgan.

Aksiologema: Aql inson hayoti uchun muhim: *Oy tunda kerak, aql kunda kerak, Aqlli bor uyda, ahillik bor, Aql – dunyoning ko'rki, Aql – odamning ko'rki.* Aql inson uchun muhim bo'lgan qobiliyat, xususiyat sifatida e'tirof etilgan.

Aksiologema: Aqlli odam bilimlidan yuqori qo'yiladi: *Bilimlidan aql chiqar, aqllidan naql chiqar.*

Aksiologema: Aql faoliyatni to'g'ri yo'naltiruvchi omil sifatida qaraladi: *Pul topib, xisob topmagan, Pulni ishlatish uchun ham kalla kerak, Pul topish oson, ishlatish qiyin, Pul topib aql topmagan ahmoq*

Aksiologema: Aql yoshga, bo'yga bog'liq emas: *Aql yoshda emas, boshda.* Shuningdek, aql va jismoniy yetuklik bir-biriga zid qo'yilib, kishidagi jismoniy xususiyatlar narsa-predmet-larga ko'chirilib ifodalangan maqollar salmog'i ham ancha yuqori. Masalan: *Aql bo'y bilan o'lchanmas, Tuyaday bo'ying bo'lguncha, tugmadak aqling bo'lsin, Bo'yimga teng bo'y topdim-u, aqlimga teng aql topmadim, Bo'y yetmagan joyga o'y yetadi (aql – o'y, mushohada), Tuyaday bo'y berguncha, Ninaday aql bersin. Chinorday bo'ying bo'lguncha, Tumordek aqling bo'lsin.* Ushbu maqollardagi tuya-nina, chinor-tumor so'zlari orqali o'ziga xos antonimiya hodisasi asosida aqlning ahamiyati ko'rsatilgan va bu so'zlar maqollardagi ifodaning milliy-madaniy jihatini tashkil qilgan.

Aksiologema: *Aql tajriba bilan o'lchanadi.* Ma'lumki, inson hayotida dunyoqarash muhim o'rinna ega. Dunyoqarash dunyoni, borliqni, odamzotni anglash bilan boyib boradi. Shuningdek, sayohat qilish salomatlik uchun ham, ma'naviy yuksalish uchun birdek foydali. Bu maqollarda qadriyat sifatida baholangan, ko'pni ko'rgan insonlar hurmat qilingan: *Ko'p yashagandan emas, ko'pni ko'rgandan so'ra.* Bu maqolda yosh emas, bilim belgilovchi ahamiyatga egaligi ta'kidlangan. *O'zgalarni eshitishdan tolma, o'z bilgаниндан qolma, Ko'p ko'rgan – ko'p bilur, Ko'rgan-ninig ko'ziga foyda, Safar ham – bir ilm, Karvon yo'lida yurib tuzaladi, Yer kezgan – el ko'rар, El oralagan – sinchi, To'qay oralagan – ovchi (sinchi – ko'pni ko'rgan, ko'zi pishgan, tajribali; xalq dostonlarida sinchi deb otning nasl-nasabini, sifatini yaxshi bilgan chavondozga nisbatan qo'llanadi: Ravshan sinchi, Qultoy kabi obrazlar bunga misol bo'ladi).*

Aksiologema: *Aql tavakkalchilik bilan ham bog'lanadi.* O'zbek tili maqollarida, o'rni bilan tavakkalchilik ham qadrlanganligining guvohi bo'lamiz: *Tavakkalni boshga ur, baxtingdan ko'r; Tavakkal qil, tosh yut; Ikkilanish o'lim; Tavakkal – erninig yo'ldoshi; Tavakkal tog'ni yiqar; Aqlli o'ylaguncha, ahmoq daryodan o'tar kabi paremiyalarda tavakkalchilik ham aql bilan ish tutishning bir usuli sifatida namoyon bo'ladi.*

Aksiologema: Donolik vazminlik, mulohazalilik bilan o'lchanadi: *O'g'ir oshadi, yengil toshadi* (Bosiq odam har qanday qiyinchilikni mulohaza bilan yengib o'tadi, jahli tez, shoshgan esa murodiga yeta olmaydi) kabi. "Devon-u lug'otit turk"da shunday keltiriladi: *Булғақ өсүү болса, қачан білгің жәтәр, Жаңшақ төлім сајраб ані тамғақ қатар – Xalqda fitna ko'paysa, aql ozayadi va to'g'ri yo'lni topolmay qoladi.* Behuda so'zlar ko'payib ketsa, og'iz qurib jag' qayi-

<sup>1</sup> Кошғарий М. Девону луготит турк (Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов). Т. I-II-III, Тошкент, "Фан", 1960 – 1963, 1-т, 1960, 403-бет.

shadi. Bu maqol o‘ylab so‘zlashga undab aytildi.<sup>1</sup> Demak, mulohazali bo‘lish qadriyat sifatida har bir davr uchun ahamiyatli bo‘lgan. *Donodan elchi qil, chorvadan yo‘lchi qil.* Elchi,sovchilar dono, aqli, mulohazali insonlardan tanlangan. O‘zbek xalqi qadimdan chorvachilik bilan shug‘ullangan bo‘lib, ularda yo‘lni to‘g‘ri tanlash, bexavotir joylarni yaxshi bilish muhim hisoblanigan, Shuning uchun ham yo‘l ko‘rsatuvchilikka aqli insonlar tayinlangan. Maqollardan ko‘rish mumkinki, elchi vasovchi tanlash kognitiv qadriyat darajasida baholangan.

Aksiologema: Aqli-epchil, epli: *Daryoga olib borib sug‘ormaydi; Tegirmon dan butun chiqadi, sepli kelin – epli kelin*

Aksiologema: Aql – boylik: *Kallam bor – ming qop tillam bor, Aqcha topguncha, aql top, Aql oltin sandiq, odamiga qarab ochiladi, Aql bozorda sotilmas.* Antiqadriyat: *nodonlik.*

Aksiologema: Aqlsizlik yoshga bog‘liq emas: *Ahmoqning kata-kichigi bo‘lmas.*

Aksiologema: Ahmoq xatosini tan olmaydi: *Qo‘rqan otasin tanimas, ahmoq xatosin ang lamas, Aqli aytsang, biladi, ahmoqqa aytsang kuladi.*

Aksiologema: Ahmoqlik davosi yo‘q kasallik: *Ahmoq qarimas, qarisa ham ahmoqligi arimas, Ahmoq – ko‘zidan ma’lum, so‘zlasa – so‘zidan ma’lum; Ahmoqqa aql bitsa, aqllini sho‘ri quriydi.*

Aksiologema: aqlsiz bilan do‘st bo‘lmaslik: *Otxonadan ayvon yaxshi, hamtovoq(ahmoq)-dan hayvon yaxshi, Nodon bilan shavla yesang, oyog‘ingni tagi pishar, Nodonga ulfat bo‘lgan qon yutar.*

Demak, zidlik aksiologiyani namoyon qiluvchi, ta’sirchanlikni belgilovchi muhim birlik sanaladi. Chunki ijobjiy yoki salbiy *baho* (*baho* aksiologiyadagi asosiy tushunchalardan biri) kontekstda leksik-semantik oppozitsiya bilan ifodalanadi. Arutyunov baholash mexanizmining lingvistik aspektlarini tahlil qilar ekan, baholash mexanizmida gapning grammatik xarakteri, sifat so‘z turkumining, asimetriya va boshqa til birliklarining o‘rniga to‘xtalib, baholash antroposen-tirik xususiyat kasb etishini, ya’ni baholash tabiatini inson tabiatiga mos kelishini, unda insonga keraklisi baholanishini ta’kidlaydi.<sup>2</sup>

Aksiologik paremeologiyaning yana bir muhim tushunchalaridan biri bu “ambivalentlik” tushunchasidir. Ambivalentlik – (lot. ambo – ikkala va valentia – kuch) kishida bir vaqtning o‘zida qarama-qarshi hissiyotning yuzaga kelishi. Masalan, ba’zan kishida ayni bir narsaga yoki kishiga nisbatan ham mehr, ham nafrat ifodalanadi. Bunday hissiyotlarning yuzaga kelishi kishiga ta’sir qiladigan hodisa va narsalarning turli-tuman tarzda sodir bo‘lishi yoki boshqa sabablar bilan bog‘liqdir. Masalan, aql bilan ish tutish har doim ham tavakkalchilikni yoqlamaydi: *Tavakkalning boshi kal, Yetti o‘lchab bir kes kabi.*

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, aksiologik leksikada xalq hayotidagi muhim tushunchalar ifodalanar ekan, unda ma’lum bir xalq uchun qadriyat darajasiga ko‘tarilgan urf-odatlar, borliq haqidagi tasavvurlar va axloqiy normalar aks etadi. Maqollar esa aksiologik leksikani aks ettiruvchi asosiy maydon hisoblanadi, chunki ular xalq hayotining barcha jahbalarini qamrab oladi. Zerro, paremiolog olim Anikin aytganidek: “Xalq tajribasida bo‘limgan narsa maqollarida ham bo‘lmaydi”. Milliy madaniy o‘ziga xoslik aynan xalq maqollarida ko‘zga tashlanadi.

## Дониёр Юлдашев (Урганч Давлат университети) АНТРОПОНИМЛАР НОМИНАЦИЯ ТАМОЙИЛЛАРИДА УЗВИЙЛИК

**Аннотация.** Мақолада антропонимлар шаклланиши ва тараққиёти босқичлари ма-саласига антропоцентрик нуқтаи назардан ёндашилган бўлиб, унда номинация тамойилларининг ўзаро узвийлиги мисоллар орқали кўрсатиб берилган.

<sup>1</sup> O‘sha manba. I, 434-bet.

<sup>2</sup> Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений: Оценка. Событие. Факт. М., “Наука”, 1988, 73 с.

## MUNDARIJA

### MATEMATIKA

A.Babadjanova, S.Khajibaeva. The Trace Formulas for the Discrete Linear Ablowitz-Ladik Equation.....	3
--	---

### BIOLOGIYA

K.Дурдиев, А.Ражабов, Ф.Машарипов. Термитларга қарши курашда патоген ем-хўракарини ўрнатишнинг усуллари ва услубларидан фойдаланиш.....	9
---	---

### FALSAFA

M.Эргашева. “Авесто”да эзгулик гоясининг асосланиши.....	14
T.Қўйлиев. Табиатни техникавий ўзлаштиришда объектив ва субъектив муносабатлар диалектикаси.....	17
Ф.Мамадалиева. Исломий қадриятлар тушунчасининг ижтимоий-фалсафий таҳлили....	22
M.Собирова. Ўзбек халқи этномаданиятида анъанавийлик ва замонавийлик уйғунылиги.....	27

### IQTISODIYOT

Y.Пхомова, S.Obloqulova. Iqtisodiyotni rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘rnini va rivojlanish yo‘nalishlari.....	32
K.Раджапов, Б.Эркаева. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликда хотин-қизларнинг ўрни ва роли.....	34

### TARIX

X.Отегенов. Хива хонлигидаги 1916 йилги қўзғолон тарихшунослиги.....	38
--	----

### TILSHUNOSLIK

G.Komilova. Aksiologik leksikaning paremalarda aks etishi.....	42
D.Юлдашев. Антропонимлар номинация тамойилларида узвийлик.....	46
С.Бабаназарова. Ўхшатишларнинг лингвокультурологик хусусиятлари.....	50
M.Каримова. Гендерные особенности языка и вербальная коммуникация.....	53
R.Жумамуратова. Каракалпакско-русские лексические лакуны: факторы формирования и культурный смысл.....	55

### ADABIYOTSHUNOSLIK

H.Джуманиязова, М.Отамуротова. Истиқлол даври ўзбек шеъриятида бадиий-услубий хусусиятлар.....	59
B.Rahimova, M. Komilova. Serqirta ijod sohibi.....	62
D.Турдалиева. Халқ мақоллари вариантилашувининг бадиий-эстетик вазифалари.....	64
L.Худайқурова. Мавсумий маросимлар фольклори ҳақида баъзи мулоҳазалар.....	70
M.Отажонова. Анвар обиджон ижодининг истиқлол даври ўзбек болалар насли тараққига таъсири.....	73
M.Жўраева. “Интизор” достони ҳақида мулоҳазалар.....	76

### PEDAGOGIKA

Б.Ядгаров, Ў.Матназаров, Д.Ядгаров. Узунликка сакровчиларнинг машғулот жараёнида тезкор-куч сифатларини ривожлантириш услубияти.....	80
Ф.Машарипов, А.Рўзметов, Н.Сафарбоев. Олий ўқув юртлари талаба-қизларини жисмоний тарбия ва оммавий спортга жалб қилиш технологияси.....	83
И.Усманова. Тарих фанини ўқитишида инновацион усуллардан фойдаланиш.....	87

<b>M.Atajonova, M.Yuldasheva, L.Mirzayeva.</b> New Approaches to Teaching Pronunciation and its Effectiveness.....	90
<b>C.Гоипова.</b> The Role of Motivation When Learning a Foreign Language.....	94
<b>K.Tukhtaeva.</b> Developing Speaking Skills of Students in Efl Classes.....	96
<b>Y.Egamberganova.</b> Advantages and Disadvantages of Rote Learning in Esp.....	100
<b>M.Khakimova.</b> Modern methods of teaching English in higher educational institutions.....	102

### **ILMIY AXBOROT**

---

<b>III.Махмараимова.</b> Метафора ва тафаккур алоқадорлиги: атov жараёнида эмотив аспект.....	105
<b>S.Matsaidova, B.Aminov.</b> Masofadan ma'lumot olishning davr o'tishi bilan o'zgarishi va o'ziga xos jihatlari.....	108
<b>N.Abduraxmanova.</b> O'zbekcha matnlarni ovozlashtirish dasturi uchun o'zbek tilidagi so'zlar va qo'shimchalar asosida lingvistik ta'minot tayyorlash.....	111
<b>S.Umarova.</b> Gastronomic Words in the Semantics of English Phraseological Units.....	114
<b>F.Akramova.</b> The Language Base of English Medical Vocabulary.....	117